



O'TKIR HOSHIMOV " TUSHDA KECHGAN UMRLAR "

Barchinoy Akramova

*Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti 3- bosqich
talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada " Tushda kechgan umrlar" asarida ilgari surilgan fikrlar, g'oyalarni ko'rish mumkin. Uning kirish qismida O'tkir Hoshimovning hayoti va asosiy qismida asar qahramonlarining hayoti ,ichki kechinmalari haqida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar : *urush, haqiqat, adolat , o'zbeklar ishi , tinchlik.*

Abstract: *This article presents the thoughts and ideas put forward in the work "Lifes Passed in a Dream". Its introduction describes the life of Otkir Khashimov, and the main part describes the lives and inner experiences of the heroes of the work.*

Keywords: *war, truth, justice, the work of the Uzbeks, peace.*

Аннотация: *В данной статье представлены мысли и идеи, выдвинутые в произведении «Жизнь, прошедшая во сне». Вступление описывает жизнь Откира Хашимова, а основная часть описывает жизнь и внутренние переживания героев произведения.*

Ключевые слова: *война, правда, справедливость, труд узбеков, мир.*

Kirish

O'zbekistonlik yozuvchi , jamoat arbobi , minglab kitobxonlar qalbidan joy olgan yozuvchi O'tkir Hoshimov 1941-yil 5- avgustda Toshkent viloyati Zangiota tumanida tavallud topgan. 1958 yilda o'rta maktabni bitirgan. Yoshligidan ilmga chanqoq O'tkir Davlat universitetining (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) jurnalistika fakultetiga o'qishga kirgan. 1963-yilda universitetni tamomlab, turli nashrlarda jurnalist bo'lib ishlay boshlagan. 1970-yillardan boshlab u asosan yozuvchilik faoliyatiga e'tibor qaratgan boshlagan. Qariyb qirq yildan ziyod o'zining ajoyib publitsistik maqolalari, hikoya, qissa va romanlari bilan adabiyotimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib keldi. O'tkir Hoshimov samarali ijodiy mehnati, tirishqoqligi uchun 1991- yili «O'zbekiston xalq yozuvchisi» faxriy unvoni bilan taqdirlangan. O'tkir Hoshimov o'z ijodini she'r va ocherklar yozishdan boshlagan. 1962 yilda uning ilk asari "Po'lat chavandozlar" ocherklar to'plami bosilib chiqdi. Shundan keyin uning birin-ketin hikoya, qissa va romanlari kitobxonlarga taqdim etildi. Uning ilk qissasi "Cho'l havosi" (1964) adabiy jamoatchilik tomonidan iliq qarshi olingan. Atoqli adib Abdulla qahhor bu qissa haqida o'sha paytdayoq juda yaxshi fikr bildirgan. U "Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo'ladi", - degan edi. U paytda mashhur yozuvchilar nigohiga tushish oson ish emas edi. O'tkir Hoshimov esa tegdoshlaridan ilgarilab Abdulla Qahhordek ulug' adib maqtoviga sazovor bo'lgan. U kitobxonlar uchun juda ham ko'p asarlarni taqdim etgan. Masalan , "Muhabbat", "Nigora", "Shamol esaveradi" hikoya va qissalari; "Qalbingga quloq sol" , ayniqsa, "Bahor



qaytmaydi" , "Dunyoning ishlari"; "Ikki eshik orasi" , "Ikki karra ikki besh" "Tushda kechgan umrlar" . Bu asarlar nafaqat o'z zamonasining , balki hozirda ham o'quvchilar qo'ldan qo'yilmay o'qiladigan asarlar hisoblanadi . Ular hayotiy , reallikka asoslangani bilan qayta qayta o'qisa ham hech ko'ngildan qolmaydigan kitoblarga aylanganlar. Atoqli adib, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov 2013 yil 24 may kuni 72 yoshida bu olamni tark etdi. Ammo kitobxonlar qalbida hli hanuz yashab kelmoqda.

Muhokama va natijalar

Serqirra ijodkor O'tkir Hoshimovni kitob shinavandalari qalbidan chuqur o'rin olfan asarlaridan biri "Tushda kechgan umrlar" asaridir. Bu romanda voqealar qamrovi juda keng bo'lib : 30-yillarning mash'um "qatag'on" qilish manzaralari, 80-yillarda Afg'oniston urushi lavhalari, shu yillarda sodir bo'lgan "o'zbek ishi" mojarolari yoritib berilgan. Bu uchta yirik, juda katta hajmli voqealarni bir-biri bilan bog'lashda, ular orasiga "biriktirish nuqtasini" topishda muallif ichki monologardan unumli foydalanadi. Asar bosh qahramoni Rustam. Qalbi go'zal tuyg'ular bilan to'lgan , sevgi osmonida uchib yurgan, ota onasining ishongan tog'i , hayot chechagi bo'lgan bu yigit eng navqiron yoshida urush girdobiga kirib qoladi va Avg'onistonga jo'natiladi. Inson hayotida shunday onlar bo'ladiki , bu lahzalar uning butun hayotini hal qiladi. Birovga ozor bermas bu yigitni urush o'z holicha tarbiyalab qo'yadi. Yan bir qahramon Rustamning suyakligi Shahnoza - haqiqiy sadoqat timsoli, uruah tugaguncha Rustamni kutadi, unga doim dalda bo'ladi. Har zamonda yaxshilar bo'lganidek yomonlar ham kam bo'lmaydi. O'zini yurti uchun fido qilayotgandek tutgan ammo yuqori mansab , yaxshi hayot uchun o'z jigarlarini ham ayamaydigan Komissar bunga misol bo'la oladi . Bu dunyo qaytar dunyo , hech qanday gunoh ish javobsiz qolmaydi albatta. O'sha paytda avj olgan "O'zbeklar ishi"ning orqasidan qanch qanch begunoh odam nobud bo'ladi , qancha qancha go'daklar otasiz qoladi. Nega aynan o'zbeklar ishi ? Axir bizdan boshqa yana qancha xalq bor edi . Lekin shular orasidan nega aynan biz , chunki o'sha paytda odamlar sodda bo'lgan o'z haq huquqlarini bilmagan. Qulog'im tinch bo'lsa , oilam davrasidan bo'lsam bas deb atrofdagi ko'p nohaqliklarga ko'z yumgan , hammasini taqdir deb qabul qilgan .Shunday razolatlar ichida kechgan umrlarning og'riqli nuqtalarini hech qachon unutib bo'lmaydi .

O'tkir Hoshimov ana shunday o'lmas asralar muallifidir. " Tushda kechgan umrlar"- minglab kitobxonlar ko'nglidan joy olgan o'lmas durdona asar.

Xulosa

Hayot doim ham biz o'ylagandek bo'lavermaydi. Uning past-u balandi, yaxshi- yomon kunlari bo'ladi. Har qanday vaziyatda ham inson o'zligini saqlab qolishi, nafsiga yengilmasligi kerak. Vatani, ota onasi oldidagi vazifasini sidqi dildan bajarishi lozim. Umr o'tkichi uni faqat ezgu amallar uchun sarflashimiz kerak. Insondan ezgu nom qoladi bu dunyoda.

